



O‘TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA QO‘LLANILGAN TOPONIMLAR TAHLILI

M. Mustafaqulova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada badiiy asarda foydalanilgan toponimlar, ularning asardagi o‘rni, o‘rganilishdan maqsadi, toponimlarning turlari va ularning tuzilishi va yasalishi borasida fikrlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, toponimlar, toponimika, mikrotoponimlar, makrotoponimlar.

ANNOTATION

The article discusses the toponyms used in literary works, their role in the work, the purpose of the study, the types of toponyms, their structure and formation.

Keywords: onomastics, toponyms, toponyms, microtoponyms, macrotoponyms

Insoniyat ongining rivoji natijasida bir turdagi narsalarning birini ikkinchisidan ajrata olish zarurati yuzaga keldi. Natijada tilimizda atoqli otlar paydo bo‘ldi. Milliy qadriyatlar asosida yaratilib, takomillashib kelayotgan nomlarni o‘rganish esa til va millatning tarixi, rivojlanish bosqichlari bilan yaqindan tanishishga imkoniyat yaratmoqda. Bunday vazifa onomastika fani doirasida o‘rganiladi va tadbiq etiladi. Onomastika (yun. “nom qo‘yish san’ati”) – atoqli otlar, ularning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi¹. Onomastika qanday turdagi otlarga qo‘yilishiga qarab bir necha guruhlariga ajratiladi: 1) antroponimlar – kishilarning atoqli nomlari bo‘lib, ism, familiya, ota ismlari, taxallus va shu kabi nomlar kiradi; 2) zoonimlar – hayvonlarga qo‘yiladigan atoqli nomlar;

¹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.60.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

3)astroponimlar – osmon jismlari nomlari; 4)toponimlar – geografik obyekt nomlari kabilar².

Tilimizda yuqorida sanab o‘tilgan nom guruhlarining har biri o‘zining faollik darajasiga ega. Xususan, badiiy asarlar aynan xalq turmushidan, muhitidan ilhomlanib, andaza olib yaratilar ekan, badiiy adabiyotda ham atoqli nomlarga keng murojaat etiladi. Quyida O‘tkir Hoshimovning “Odam ovozi”, “Uzun kechalar”, “Nurli halqachalar”, “Uch xil odam”, “Umr savdosi”, “Dard”, “Nimadir bo‘ldi”, “Baxt”, “Uloq”, “Jintepa” va “Bahodir nega adashib qoldi?” hikoyalarida qo‘llanilgan toponimlar haqida fikr yuritamiz.

Ma’lum bir geografik hudud (qishloq, shahar, mamlakat, tog‘-adir, ko‘cha) ga atab qo‘yilgan nomlar joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni esa toponimika fani o‘rganadi³.

Hikoyalarda toponimiyaning yirik geografik hududni bildirganlaridan tortib kichik joylarni ham anglatuvchi bir qancha turlarini uchratishimiz mumkin. Xususan, oronimiya, ya’ni tog‘, cho‘qqi, qirlar, vodiylar nomlari: “Jintepa” hikoyasida *Jintepa* oronimi; polinimiya yoki urbononomiya, ya’ni shahar va qishloq nomlari: “Odam ovozi” hikoyasida *Samarqand, Moskva, Anjan(Andijon)*; “Uzun kechalar” hikoyasida *Afrosiyob, Riga*; “Nurli halqachalar” hikoyasida *Toshkent, Chinoz*; “Umr savdosi” hikoyasida *Moskva, Qashqadaryo, Leningrad, Sibir, Novosibirsk, Xorazm, Ko‘kcha*; “Nimadir bo‘ldi” hikoyasida *Sirdaryo*; “Uch xil odam” hikoyasida *Dashnobod*; “Dard” hikoyasida *Qoratosh*; “Uloq” hikoyasida *Ohangaron* kabi; godonimiya, ya’ni ko‘cha, shoh ko‘cha nomlari: “Bahodir nega adashib qoldi?” hikoyasida *Majnunatol ko‘chasi, Cho‘ponota ko‘chasi* kabi; agoronimiya, ya’ni maydon, bozorlar nomlari: “Dard” hikoyasida *Pastbozor*; “Baxt” hikoyasida *Oloy bozori*; “Uzun kechalar”da *Anhor ko‘prigi* kabilar.

Xohlasangiz bugunoq tushuntirishga harakat qilaman. Kechqurun soat oltida *Anhor ko‘prigi* yonida ko‘rishamiz (Umr savdosi, 19-bet).

Jintepa eng baland cho‘qqi bo‘lganidan unda qor kech erigan, ravoch ham kech chiqqan, buni bolalar bilishardi (Umr savdosi, 120-bet).

² Kilichev B. Onomastika. – Buxoro, 2023. – B.7.

³ Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B. 5.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

Chilonzor tumanidagi to'rtta bog'chada Nazira degan tarbiyachi ishlarkan. O'n yettinchi kvartalda, to'qqizinchi kvartalda, *Cho'ponota* ko'chasidagi va *Majnuntol* ko'chasidagi bog'chalarda! (Umr savdosi, 137-bet).

Besh-olti bog' piyozni *Pastbozorga* olib tushcha-chi? Ikki qadam joy bo'lsa (Umr savdosi, 85-bet).

Leningradda pishirib qo'ygani yo'q! *Novosibirskka* ketgan. Uzun opketgan (Umr savdosi, 77-bet).

U bu olamga kirish uchun *Rimning* tengdoshi bo'lgan *Afrosiyobni* qarichma-qarich kezib chiqdi. *O'rta Osiyoda* aniq fanlar yo'q edi, degan be'mani da'voni rad etish dardida bir yarim yil yondi (Umr savdosi, 29-bet).

Toponimlar o'z-o'zidan paydo bo'lmagan, ya'ni, masalan, Samarqandni Samarqand deyilishimizning o'ziga xos sababi mavjud bo'lishi mumkin. Xalq ana shunday mulohazalardan kelib chiqib joylarni nomlaganlar. Quyida hikoyalarda keltirilgan ayrim joy nomlarining izohi bilan tanishamiz:

Chinoz qochib ketgani yo'q. Kelib-ketib yurgan joyim (Umr savdosi, 41-bet).

Chinoz Toshkent v., tuman. O'zbek xalq tarkibidagi chinoz/chinas urug'i jamoasining qishlog'i. Qadimgi turkiy, mo'g'ul tilida chin (bo'ri), -as/-az (jamlik, qo'sh) – bo'rilar, bo'ri – totem⁴ ma'nolarini anglatadi.

Faqat to'ydan keyin Poshsha xola Anvarning *Yunusobod*dagi ikki xonali uyiga bormadi (Umr savdosi, 74-bet). Yunusobod Toshkent sh. daha. Yunus[a] kishi qurgan rabot⁵.

-*Anjandan*, - dedi boyagi yigit. Rangpar bola ham boshini silkitib jilmayib qo'ydi (Umr savdosi, 9-bet). Andijon – suv bo'yi, daryo yoqasi degani⁶.

Olisda Ohangaron shahrining uzun mo'rilari, shaharni ko'mir koni bilan bog'lovchi elektrovoz izlari, dovonga cho'zilib ketgan qora tasmadek asfalt yo'l, pastdagi qishloq – bari qor ostida mudraydi (Umr savdosi, 116-bet). Ohangaron Toshkentv. tuman. Ohan (temir) -gar, -on – temirchilar, temirga ishlov beruvchilar va temirdan asbob, jihoz va boshqa narsa yasovchilar⁷.

⁴ Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 79.

⁵ Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 72.

⁶ Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 5.

⁷ Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 39.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

- *Sirdaryoga* ketaverishda – yigirma sakkizinchi kilometrda zo‘r bog‘ bor, - dedi Fayzulla Azimjonning angrayib turganini ko‘rib (Umr savdosi, 95-bet). Sirdaryo daryo, tuman, viloyat. Sir qadimgi turk xalqining daryosi. Daryo nomi tuman, viloyat nomiga o‘tgan⁸.

- O‘rtoq leytenat! – dedi u chest berib. – *Chilonzor* tumanidagi to‘rtta bog‘chada Nazira degan tarbiyachi ishlarkan (Umr savdosi, 137-bet). Chilonzor qishloq, daha. Chilon (katta, mag‘izli jiyda), -zor (o‘rin-joy qo‘sh.) – jiyda daraxti ko‘p o‘sgan joydagi qishloq, daha⁹.

To‘xtamish Samarqandga, qizirikiga ketgan. Otinnikiga borsamikin?.. (Umr savdosi, 6-bet). Samarqand shahar, viloyat. Turkiy semiz (boy, ulug‘, katta) va kent (so‘g‘dcha) katta shahar, ulug‘ qo‘rg‘on¹⁰.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi O‘tkir Hoshimov o‘z hikoyalarida aksariyat hollarda hayotda mavjud toponimlar bilan asar voqealarini yoritib berishi o‘quvchilar ongida real tasvirlar chizishga yordam beradi. Badiiy asardagi har bir onomastik birliklar, xususan, toponimlar asarning hayotiyligini oshirishga ko‘mak beradi. Yozuvchi asarni shunchaki hech qanday nomlarni keltirmasdan yozishi ham mumkin edi, ammo unda asar tili makon va zamon bo‘yog‘ini yetarlicha aks ettira olmagan bo‘lar edi. Bundan tashqari, badiiy asarda foydalanilgan toponimlar milliy qadriyatlar asosida shakllangan til tariximizni saqlab qolishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari mlliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 318b.
2. Kilichev B. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2023. – 180b.
3. Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 88b.
4. O‘tkir Hoshimov. Umr savdosi. – Toshkent: Global books, 2021. – 288b.

⁸ Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 58.

⁹ Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 79.

¹⁰ Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 56.